

**XX ASRNING 80- YILLARI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA  
SURXONDARYO VILOYATIDAGI O'ZGARISHLAR**

***Mardonova Madina Hikmat qizi***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Email: [madinamardonova340@gmail.com](mailto:madinamardonova340@gmail.com)***

***Yangiboyev Abdulaziz O'tkir o'g'li***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

***Email: [yangiboyevabdulaziz53@gmail.com](mailto:yangiboyevabdulaziz53@gmail.com)***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Surxandaryoi viloyatining 80- yillardaki ahvoli hamda mustaqillik yillaridaki o'zgarishlar manbalar asosida yoritilgan bo'lib, Surxandaryoning bugungi kundaki respublikamizdaki o'rni haqida atroflicha to'xtab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** XX asrning 80-yillari, "o'zbeklar ishi", "o'zbeklar ishi", 1989-yil 23-iyun, XX asr 90-yillarining boshlarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, XX asrning 50—80 yillarida Shukur Xolmirzayev, Ra'no Uzoqova, Erkin A'zam, Sattor Tursunov, Tesha Saydaliyev, Karim Mallayev, Isomiddin Otaqulov, Mengziyo Safarov, Ozod Avliyoqulov, Usmon Azim, Nizomjon Parda, Yusufjon Valizoda, "Zarchob-1" va "Zarchob- 2", 2004-yil 21- iyuldaggi 290-sonli qaroriga asosan "Boysun ko'mir

XX asrning 80-yillari sobiq sovet davlatida ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va ma'nnaviy jihatdan yaqqol tanazzul holati yuzaga kelib qolgan davr edi o'zbeklar ishi "qayta qurish " siyosati barbod bo'lishi, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sinfiy, umumiy manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo'ygan, yagona partianing hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko'rsatgan edi. Bu vaqtda O'zbekiston iqtisodiy hayoti juda

og'ir ahvolda, xususan, sanoatning bir yoqlama rivojlanib, «paxta» sanoat kompleksiga moslashishi, ekologik ahvolning og'irlashib, onalar va bolalar o'limining oshib ketishi, millatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelib, milliy mojarolar yanada kuchayib, milliy urf-odatlar, qadriyatlar ta'qib ostida qolishi respublikani tang ahvolga solib qo'ygan edi. O'sha davlarda o'zbeklar hayotida o'zbeklar ishi va «o'zbeklar ishi» deb yuzsizlarcha nomlangan tergovlar boshlanib ketdi. Gdlyan guruhi o'zbekistonliklarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yubordi. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladи. 1989-yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlandi. O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani uchun sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalariga jo'natildi. 1989-yil 23-iyun kuni respublika rahbarligiga Islom Karimov saylandi. Yangi rahbarning faoliyati O'zbekiston fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, toptalgan huquqlarini tiklash kabi olajanob va xayrli ishdan boshlandi. «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990-yilning iyun oyiga kelib, komissiya eng muhim bir xulosaga keldi. 1990-yil 13-iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda «Paxta ishi» chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'rniga tayzyiqni kuchaytirdilar. Respublika rahbarining qat'iyatli harakati bilan nohaqlik barham topdi. Komissiya ikki yildan ko'proq vaqt orasida 40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi. 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, bir qismi Prezidentimiz tomonidan avf etildi. XX asrning 80-yillarning o'rtalariga kelib mamlakatdagи iqtisodiy taraqqiyotni chuqur tahlil qilmasdan 90-yillarning oxiriga borib, sobiq SSSR da milliy daromadni 2-2.5 barobar o'stirish, aniqrog'i avvalo 70 yil ichida amalga oshirilgan ishlarni keyingi 15 yil ichida bajarish vazifalari qo'yildiki, bular mutlaqo haqiqatdan uzoq edi. Bu hol tabiiy ravishda 70-80 yillar boshlarida jamiyat oldidagi muhim xalq xo'jaligi vazifalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish 20 bilan emas,

balki qo'shib yozish, pora berish, oshna-og'aynigarchilik bilan osongina hal qilishga olib keldi.[1;18b] XX asrning 80-yillari oxirida respublika ijtimoiy hayotida jonlanish boshlandi. Odamlar xilma-xil fikrlar bildirish, dillaridagini oshkora aytalish imkoniyatiga ega bo'la boshladilar. O'zbek xalqining dilidagi g'oya — mustaqillik g'oyasi edi, xalq mana shu g'oyani ko'tardi. Mustaqillik uchun harakatda yangi to'lqin boshlandi. Ammo yurtimizda hukmron bo'lgan Markazdan yuborilgan «kadrlar to'dasi» ularning qosh-qovog'iga qarab ish yuritadigan ayrim mahalliy ojiz rahbarlar bu g'oyaga, uni amalga oshirishga to'sqinlik qildilar. Milliy qadriyatlarimizga nisbatan yana qatag'onlik uyushtirildi, to'qib chiqarilgan "paxta ishi" bahonasi bilan o'n minglab kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi va ularning aksariyati qamaldi. Tarix taqozosi bilan elim deb, yurtim deb, yonib yashayotgan Islom Karimovdek fidoyi insonning O'zbekistonning birinchi rahbari lavozimiga saylanishi bu sohadagi adolatsizliklarga barham berilishiga olib keldi, adolat tiklandi. XX asr 90-yillarining boshlarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan iqtisodiyot va xalq xo'jaligining barcha soha tarmoqlarida ommaviy xususiyashtirish uchun keng imkoniyat yaratildi, xususiy mulk va tadbirkorlar manfaatlariga to'siq bo'luvchi barcha cheklashlar olib tashlandi. Bu davrda asosan ochiq tipdag'i aksionerlik jamiyatlari faoliyatini kengaytirish, korxonalar aksiyalarini tadbirkorlarga auksionlar orqali sotish, ommaviy xususiyashtirish va kichik biznesning rolini oshirish uchun qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirishga e'tibor qaratildi. Bu borada respublika hududlari, ayniqsa mahallalarining o'ziga xos ijtimoiy-demografik holati, tabiiy-iqlim sharoiti va geografik joylashuvidan kelib chiqib, ushbu mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarini rivojlantirishga harakat qilindi. Ana shunday viloyatlar qatorida O'zbekistonning janubiy viloyatlari hisoblanmish Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarini alohida keltirib o'tish mumkin. Ushbu viloyatlar mahallalarida azaldan oilaviy tadbirkorlik va kasanachilik rivojlanishining o'ziga xos etnohududiy xususiyatlari mavjud bo'lib, bunda asosan gilamdo'zlik, qandolatchilik, trikotaj va qurilish maxsulotlari ishlab chiqarish, jun va qorako'l teri maxsulotlari ishlab chiqarish, yog'ochsozlik, mebelsozlik, zargarlik, kashtachilik

sohalari rivojlangan. Ushbu sohalar rivojining yangi bosqichga ko'tarilishida shubhasiz, mahalla asosiy o'rin tutib kelgan.[2;15b].

Surxondaryo viloyatida XX asrning 50—80 yillarida Shukur Xolmirzayev, Ra'no Uzoqova, Erkin A'zam, Sattor Tursunov, Tesha Saydaliyev, Karim Mallayev, Isomiddin Otaqulov, Mengziyo Safarov, Ozod Avliyoqulov, Usmon Azim, Nizomjon Parda, Yusufjon Valizoda, Ismat Norboyev, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Tog'ay Murod, Boltajon Sodiqov, Xurram Mak, sadqulov, Sirojiddin Sayyid, G'ulom Egamshukur, Bolta Yoriyev, Narzulla So'fiyev, Arbob Chosh, Eshqobil Shukur, shoir va pedagog Xolmuhammad Qulniyozov, Nodir Normatov, Mirzo Kenjabek, XX asrning keyingi yillarida Namoz Ergashev, Zoir Mamajonov, Gulandom Tog'ayeva va boshqalarning she'riy va nasriy asarlarida sevgi, yaxshilik, mehroqibat,adolat tuyg'ulari, shuningdek, voha kishilarining hayot tashvishlari, mehnat yumushlari, urfodat va an'analari muhim o'rin egallagan.

Surxondaryo viloyatida O'zbekiston ijodiy uyushmalari (yozuvchilar, rassomlar, me'morlar, jurnalistlar va boshqalar)ning viloyat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.[3;45b]

1990-yildan buyen faoliyat ko'rsatayotgan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining kunlik ko'rsatuvlari o'rtacha 3—4 soatni tashkil etadi.[4]

Yangi O'zbekistonning barcha iqtisodiyot sohalarida bo'lgani kabi Surxondaryo energetika sohasi ham istiqlolning dastlabki yillarida og'ir iqtisodiy ahvolni boshidan kechirdi. 1992-yilda elektr iste'molchilarining soni 170 mingni tashkil qildi. 1994- yilning boshlariga kelib esa elektr iste'molchilarining soni 183 mingga yetdi. 1993- yilda xalq xo'jaligiga 2 mlrd. 196,2 mln. kilovatt soat elektr quvvati yetkazib berildi va topshiriqlar oshirib bajarildi<sup>2</sup>. Surxondaryo viloyatida 1994-yilda aholi jon boshiga sarf qilingan elektr energiyasi bir yilda o'rtacha 1600 kvt soatni tashkil qildi. U qadar katta bo'limgan muddat (1980-1999 yillar) ichida kuchlanish 38-500 kvt bo'lgan podstansiyalarning soni 59 tadan 123 taga ularning quvvati 842,6 ming kvt dan 2 mln 630 ming kvt ga transformator nuqtalari 1495 tadan 2270 taga, quvvati 145,6 ming kvt dan 284,4 ming kvt ga, kuchlanish 4-500 kvt bo'lgan elektr havo yo'llari 12795 km dan 18261 km ga ko'paydi[5;90 b] .

Bugungi kunga kelib viloyatning asosiy elektr ta'minotchilaridan biriga aylangan "To'palang" GES i 2006-yilda foydalanishga topshirildan. Bu yerda har biri 15 megavatt bo'lgan ikkita agregat ish boshladi. 2017-yilda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev topshirig'iga asosan, suv ombori to'g'oni 20 metrga ko'tarildi. Natijada uning sig'imi 380 mln. kub metrdan 500 mln. kub metrga yetkazildi. Bu davrda suv omboridan pastda bir-biridan uncha uzoq bo'limgan "Zarchob-1" va "Zarchob- 2" gidroelektr stansiyalari ishga tushirildi. Bu bilan To'palang daryosida qurilgan GES lar soni uchtaga yetib, ularning umumiy quvvati 105,6 MVt ni tashkil qilmoqda. Bu yiliga 300 mln. kvt.saat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. 2019- yilda birinchi va ikkinchi gidroagregat qurilishi topshirig'i berildi. Bu ish 2022- yil oxirida nihoyasiga yetadi. Har biri 72,5 megavattli ikkita gidroagregat qurilishi natijasida quvvati 175 megavattga yetadi. "To'palang" GES i O'zbekistondagi Chorvoq GES idan keyin ikkinchi o'rindagi stansiyaga aylanadi[6;23b] . Istiqlol yillarida viloyat neftchilari ham neft mustaqillagini ta'minlash sohasida o'zlarining mahsulotlari va mehnatlari bilan katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Biroq istiqlolning dastlabki yillarida barcha sohalarda bo'lgani singari, neft va gaz sanoati tarmoqlarida kamchiliklar ko'zga tashlanadi. "Jarqo'rg'on neft" koni ishga tushirilganidan keyingi o'n ikki yil davomida mavjud bo'lgan tashvishlarga chek qo'yildi. Tadbirkorlik tufayli maxsus mashinalar 40-45 kilometr masofa bosib, Qumqo'rg'on estakadasiga qatnaydigan bo'ldi. Bu esa bozor sharoitida samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. 1998-yilda "Jarqo'rg'onneft" boshqarmasi neftchilari tomonidan yetti oy ichida 78240 tonna yoki belgilanganidan 320 tonnadan ziyod neft ishlab chiqarildi. 1998- yilda jami 134500,0 tonna neft qazib olindi. Gaz ishlab chiqarish rejası 102 foizga yoki 3 million 554 ming so'm ziyodi bilan uddalandi. Bundan tashqari, boshqarma bo'yicha 328 ming so'mlik pulli xizmat ko'rsatildi<sup>5</sup> . Surxon vohasidagi neft konlaridan chiqayotgan oqova suvlaridan yod olish mumkin degan taklif 1996-yildan boshlandi. 1997-yilga kelib Jarqo'rg'ondagи Xovdak quduqlaridan 8 tonna oqova suv Toshkentdagи ilmiy-tekshirish markaziga olib borildi. Istiqlol yillarida viloyat neft-gaz xodimlari ham mamlakatimiz va voha aholisini gaz bilan ta'minlash ishlarini yaxshi yo'lga qo'yish

maqsadida harakatlarini ayamadilar. 1991-yilning dastlabki to‘rt oyida qiyinchiliklarga qaramasdan viloyatda 5 million kubometr tabiiy gaz qazib olinib, iste’molchilarga yetkazib berildi. 1993- yilda gaz olish bo‘yicha yillik reja 101,3 foizga bajarildi, rejadan tashqari 122 ming kubmetr gaz qazib olindi. “Boysun ko‘mir” hissadorlik jamiyatni tomonidan 2003-yilda 81908 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2004-yilda 31766 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21- iyuldagagi 290-sonli qaroriga asosan “Boysun ko‘mir” hissadorlik jamiyatni “Sharg‘un ko‘mir” hissadorlik jamiyatiga tarkibiga qo‘sildi.[7;54b]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,Surxondaryo viloyati mustaqillikdan oldin sust rivojlanganini asosiy o’sish hamda barqarorlashuv davri SSSR davriga tpo’g’ri kelishini yaqqol ko’rinib turibdi , ayniqsa ,” paxta ishi”hamda ziyolilarning tinimsiz taqib ostiga olinishi ularni qatag’on qilinishi ,oqibatida ,ko’plab aholiga ziyon bergenini ko’rishimiz mumkin ekan. Shuni aytaolamizki ,har bir erishilgan yutiq mustaqillik tufayli ekan shunday ekan mustaqillikni qadrlaylik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.R.E.Xoliqova O‘Zbekistonning Eng Yangi Tarixi o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2021 .18-bet.

2.Yunusova X.E.XXasrning 80 yillarida O‘zbekiston daijtimoiyiqtisodiy jarayonl arvama’naviyhayot.Tarixfan Doktor ilmiy darajani olish uchun yozilgand issertatsiya.Toshkent.2009.15-bet .

3.Toshboyev.O.Qo’liqotilsoldimast...Yana o’sha mash’um “paxta ishi”. Publististik maqola. 2018. 45-bet.

4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/13/surxondaryo/>

5. Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 12-fond, 1-yozuv, 12-ish, 90-varaq.

6. Surxondaryo viloyati davlat arxiv. F. 503. Op. 1. C. 1. 5. S. Tursunov, E.Kobulov. Surxondaryo tarixi. – 23-bet., 54- bet.